

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, IV-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH .....	10
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
<b>Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
<b>Ma'rupova Gulnoz</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
<b>Муратов Абдулазиз Уктамович</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
<b>Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
<b>Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA .....	38
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI .....	45
<b>BekmurodovAbbos Amiriddinovich</b>	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
<b>Makhambetova Uringul Reimbaevna</b>	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH .....	55
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI .....	62
<b>Ergasheva Ma'mura Gayratovna</b>	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH .....	74
<b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir</b>	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES .....	82
<b>Farida Nishanova</b>	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	87
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	92
<b>Iskandar Yunusov</b>	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
<b>Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich</b>	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	108
<b>Rahimov Qodir Ergashevich</b>	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	115
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI .....	124
<b>Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
<b>Raxmonova Nigina Anvarovna</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA .....	132
<b>Farida Nishanova</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	137
<b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
<b>Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS») .....	151
<b>Мусаева Шоира Азимовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI .....	161
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich</b>	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
<b>Yadgarova Nigora Rixsulla qizi</b>	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
<b>Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra</b>	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
<b>Киямов Рахматулло Рузиевич</b>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
<b>Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista</b>	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI .....	184
<b>Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek</b>	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
<b>Uzakov Sh. Sh.</b>	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
<b>Raximov Faxriddin Shavkatovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ .....	201
<b>Петр Ким</b>	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
<b>Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора</b> HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b> NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH .....	217
<b>Djumonov Dilshod Safaroliyevich</b> O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI .....	222
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich</b> JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI .....	227
<b>Atamuratova Gulrux Muzafarovna</b> KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
<b>Razikov Otabek Rustamovich</b> ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛКНЕНИЯ ПУТАНКИ .....	240
<b>Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек</b> SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI .....	247
<b>Sayfiyev Jasur Ravshanovich</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	253
<b>Rizoqulova Elnora Otabek qizi</b> YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
<b>Ergashev Erkin Iroqovich</b> QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
<b>Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek</b> ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ .....	271
<b>Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов</b> KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULYAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI .....	282
<b>Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon</b> ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA) .....	288
<b>Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li</b> IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV .....	294
<b>Madenova Elmira Nizamatdinovna</b> TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI .....	300
<b>Turanov M. Sh.</b> BELAZ YUK MASHINALARINING SHARLI O'Q DETALLARDAGI KUCHLANISH KONSENTRATSIYASINING TAHLILI VA MUSTANKAMLIKKA TA'SIRI.....	306
<b>Yusupov Abdulaziz, Pushanov Akbar, Jo'raqulov Ixtiyor, Jaxonov Shoxrux</b> ОЧИСТИТЕЛЬНАЯ СЕКЦИЯ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО АГРЕГАТА С НАКЛОННЫМИ КОЛКАМИ НА КОЛКОВЫХ БАРАБАНАХ.....	311
<b>Эргашев Рахимжон, Мавлянов Айбек, Росулов Рузимурод</b> SUV-SUV TIZIMIDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH .....	316
<b>Karabayev Asatilla, Yo'lliyev Shukurali, Abduqayumov Jamoliddin</b>	



HUDUDLARDA AGROTURISTIK SALOHİYATNI BAHOLASH USLUBI .....	323
<b>Qodirov Azizjon, Rustamov Adhamjon, Jumayeva Ozoda</b>	
ROI-WEIGHTED PRIMARY FRAME FILTERING FOR EFFICIENT DEEP VIDEO SURVEILLANCE .....	329
<b>Shohruh Begmatov, Mukhriddin Arabboev, Akhram Nishanov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	340
<b>Sharipova Munojot Murodullayevna</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ .....	348
<b>Баходиров Азизжон Баходирович, Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	353
<b>Isomuxamedov Akbarjon Bahodir o'g'li</b>	
BUYUK BRITANIYADA BILVOSITA SOLIQLAR TIZIMINING EVOLYUTSIYASI .....	359
<b>Malika Sharipova Maxmudjon qizi</b>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING BESH BOSQICHLI REYTING SHKALASI: METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY TATBIQ ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA) .....	367
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b>	
«ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ» .....	372
<b>Ким Т.В.</b>	
XUSUSIY UNIVERSITETLARNI IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ICHKI MANBALARI: BALANS TARKIBI VA AKTIVLARNI KAPITALLASHTIRISH TAHLILI .....	378
<b>Rahimov Sardor Uralovich</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ .....	383
<b>Кадыров Арслан, Пашаходжаева Дилдора</b>	
RAQAMLI BANK ISHI: ZONAVIY TENDENSIYALAR, INNOVATSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	388
<b>Shokirov Sardor Inotdullo o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	393
<b>Malikova Shoira Baxtiyorovna</b>	
BUXORO VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATINI SIRKULAR IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ...	398
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORINING TASHKILYI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI .....	402
<b>Abdumalikov Shoxjahan Jaloliddin o'g'li</b>	
BIZNES TAHLILIDA KATTA MA'LUMOTLAR VA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	407
<b>Umarov Abbos Nuriddin o'g'li</b>	
MINTAQA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	414
<b>Oramov Jahongir, Muxitdinov Xudayar</b>	
POSE-AWARE FACE SELECTION FOR IMPROVING FACE IDENTIFICATION RELIABILITY .....	419
<b>Shohruh Begmatov</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORT UCHUN MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH VA UNI SUG'URTALASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH .....	433
<b>Kalenov K.T.</b>	



# O'ZBEKISTONDA EKSPORT UCHUN MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH VA UNI SUG'URTALASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH

**Kalenov K.T.**

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** O'zbekistonda eksport uchun meva-sabzavot yetishtirish bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Eksport va import shartnomalarini sug'urtalash uchun 4 ta blok asosida umumiy risk indeksini shakllantiruvchi ko'p faktorli integral risk-skoring modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, eksport-import operatsiyalarini sug'urtalashda qo'llaniladigan uch bosqichli kafolat mexanizmi taklif etilgan. Tavsiya etilgan yondashuvlar meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlash, sug'urta himoyasi samaradorligini oshirish hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** agrar eksport, risk-menejment, sug'urta, eksport-kredit sug'urtasi, parametrik sug'urta, davlat-xususiy sheriklik, qayta sug'urta, valyuta xedjirlash.

**Abstract.** Mechanisms of state support for insurance against risks associated with the production of fruits and vegetables for export in Uzbekistan are analyzed. A multi-factor integrated risk-scoring model for export and import contract insurance is proposed, in which an overall risk index is formed based on four blocks. In addition, a three-stage guarantee mechanism for insuring export-import operations is developed. The proposed approach is aimed at ensuring the stability of fruit and vegetable exports, improving the effectiveness of insurance protection, and enhancing competitiveness in international markets.

**Keywords:** agricultural export, risk management, insurance, export credit insurance, parametric insurance, public-private partnership, reinsurance, currency hedging.

**Аннотация.** Проанализированы механизмы государственной поддержки страхования рисков, связанных с выращиванием плодовоовощной продукции для экспорта в Узбекистане. Предложена многофакторная интегральная модель риск-скоринга при страховании экспортных и импортных контрактов, предусматривающая формирование общего индекса риска на основе четырёх блоков. Кроме того, разработан трёхступенчатый механизм гарантий при страховании экспортно-импортных операций. Предлагаемый подход способствует обеспечению стабильности экспорта плодовоовощной продукции, повышению эффективности страховой защиты и укреплению конкурентоспособности на внешних рынках.

**Ключевые слова:** аграрный экспорт, риск-менеджмент, страхование, экспортно-кредитное страхование, параметрическое страхование, государственно-частное партнёрство, перестрахование, валютное хеджирование.

## KIRISH

Meva-sabzavotchilik sohasida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko'rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o'zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda eksport hajmini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ular bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi meva-sabzavot eksporti bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun risklarni boshqarishning eng samarali instrumentlaridan biri sug'urta tizimi hisoblanadi. Mahul va Stutley (2010) o'z tadqiqotlarida agrar sug'urta tizimlarini rivojlantirishda davlat ishtirokining muhimligini asoslab bergan [5]. Mualliflarning fikricha, davlat tomonidan subsidiyalash, qayta sug'urta mexanizmlari va institutsional qo'llab-quvvatlash mavjud

bo'lgan sharoitda agrar sug'urta bozori yanada samarali rivojlanadi.

Qishloq xo'jaligi risklarini boshqarish sohasidagi tadqiqotlarda Hardaker, Huirne, Anderson va Lien (2015) fermer xo'jaliklarida risk-menejment tizimlarini tahlil qilgan [3]. Mualliflar agrar sektorda risklarni diversifikatsiya qilish, sug'urta mexanizmlarini joriy etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda agrar sug'urta tizimlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilish bilan bir qatorda investitsiya muhitini yaxshilashga ham xizmat qilishi ta'kidlangan. Jumladan, World Bank (2022) hisobotida eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda sug'urta va moliyaviy kafolat mexanizmlarining ahamiyati yuqori ekani qayd etilgan [9].

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilgan FAO (2021) tadqiqotlarida davlat tomonidan sug'urta mukofotlarini subsidiyalash, qayta sug'urta fondlarini tashkil etish va innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish agrar sug'urta tizimini rivojlantirishning muhim omillari ekani ta'kidlangan [2].

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda parametrik sug'urta va indeks asosidagi sug'urta kabi innovatsion mexanizmlar ham keng muhokama qilinmoqda. Miranda va Farrin (2012) tadqiqotlarida indeks asosidagi sug'urta tizimlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda sug'urta bozorining qamrovini kengaytirish imkonini berishi ta'kidlangan [6].

Agrar eksport bilan bog'liq risklarni boshqarishda eksport-kredit sug'urtasi ham muhim instrument hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda eksportyorlarni himoya qilish maqsadida maxsus eksport-kredit agentliklari faoliyat yuritadi. Masalan, AQSHda Export-Import Bank, Yevropa mamlakatlarida esa milliy eksport-kredit agentliklari eksportyorlarni tijorat va siyosiy risklardan himoya qilish mexanizmlarini taqdim etadi (Stephens, 2019) [8].

Bundan tashqari, tashqi savdo operatsiyalarida valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirish maqsadida valyuta xedjirlash mexanizmlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Hull (2018) tadqiqotlarida moliyaviy derivativlar orqali valyuta risklarini boshqarish eksportyorlar uchun muhim moliyaviy instrument ekani ta'kidlangan [4].

O'zbekistonda ham agrar sektorni rivojlantirish va meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rag'batlantirish maqsadida bir qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2021-yil 15-dekabr**dagi PQ-52-son qarori meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirish, klaster tizimini takomillashtirish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bilan bog'liq risklarni kompleks sug'urtalash hamda ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, eksport-kredit sug'urtasi, qayta sug'urta fondlari, parametrik sug'urta va valyuta risklarini xedjirlashni davlat tomonidan rag'batlantirish masalalari ilmiy jihatdan yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Shu sababli mazkur tadqiqot meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tahlil qilishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanildi:

- institutsional tahlil;
- qiyosiy tahlil (Yel, Turkiya va AQSH tajribasi);
- risklarni klassifikatsiya qilish;
- moliyaviy instrumentlar samaradorligini baholash.
- Shuningdek, xalqaro eksport-kredit agentliklari faoliyati konseptual jihatdan o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida quyidagi mexanizmlar taklif etildi:

- eksport-kredit sug'urtasini joriy etish;
- xorijiy xaridorlar tomonidan to'lovlarning amalga oshirilmasligi risklarini sug'urtalash maqsadida maxsus eksport-kredit agentligini tashkil etish. Bu kichik va o'rta eksportyorlarning tashqi bozorlarga chiqishini yengillashtiradi;
- davlat-xususiy sheriklik asosida qayta sug'urta fondini tashkil etish;
- katta riskli eksport shartnomalari bo'yicha davlat kafolati asosida qayta sug'urta mexanizmini joriy etish.



- Bu sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi;
- parametrik agrosug'urtani joriy etish. Buning natijasida iqlim indekslariga asoslangan avtomatik to'lov mexanizmini joriy etish orqali zararni tezkor qoplash imkoniyati yaratiladi;
  - valyuta risklarini xedjirlashni subsidiyalash. Forward va fyuchers shartnomalari xarajatlarining ma'lum qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish eksportyorlarning moliyaviy barqarorligini oshiradi;
  - differensial sug'urta subsidiyalari ajratish tizimini yo'lga qo'yish. Xalqaro standartlarga rioya qiluvchi va sertifikatlangan eksportyorlar uchun yuqori subsidiya stavkalarini belgilash axloqiy xatarni kamaytirishga xizmat qiladi;
  - milliy agrar qayta sug'urta jamg'armasini tashkil etish. Katastrofik yo'qotishlar holatlarini hisobga olgan holda maxsus fondni tashkil etish ichki bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Muhokama (Discussion/Дискуссия)

So'nggi yillarda O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga meva-sabzavot mahsulotlari eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Eksport geografiasining kengayishi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning faollashuvi mazkur sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, eksport faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, 2021–yil 15–dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–52-son qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qaror meva-sabzavotchilik sohasini yanada rivojlantirish va eksport faolligini rag'batlantirishga qaratilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatga muvofiq, eksport shartnomalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari va agroklastlar tomonidan yetishtiriladigan meva-sabzavot hosilini turli xatarlardan sug'urtalash uchun to'lanadigan sug'urta mukofotining 50 foizini davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplash tartibini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Shuningdek, qarorda xorijdan yuqori malakali mutaxassislar — agronomlar, entomologlar va laboratoriya tahlili bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizini qoplab berish ham belgilangan.

Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlari tahlili meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bilan bevosita bog'liq risklarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta to'lovlarini (sug'urta mukofotlarini) qisman qoplash mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, mavjud chora-tadbirlar asosan ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash va agrotexnologik samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, mahsulotni eksport qilish bosqichida yuzaga keladigan logistik, tijorat va moliyaviy risklarni sug'urta mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu munosabat bilan meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni davlat tomonidan rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday mexanizmlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining eksport faoliyati barqarorligini oshirish, tashqi iqtisodiy risklar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, shuningdek, milliy meva-sabzavot mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmlar shuni ko'rsatadiki, risklarni sug'urtalashning samarali tizimlari bozor mexanizmlari va davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash choralarining o'zaro uyg'unligini taqozo etadi. To'g'ridan-to'g'ri subsidiyalari ajratish hamda risklar yuzaga kelganda ko'rilgan zararni to'liq qoplash, bir tomondan, davlat budjetiga sezilarli moliyaviy yukni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, sug'urtaning bozor mexanizmlari rivojlanishini cheklashi hamda barqaror sug'urta bozorining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois qayta sug'urta fondlari, eksport-kredit agentliklari va moliyaviy xedjirlashni qo'llab-quvvatlash kabi institutsional mexanizmlarni joriy etish qishloq xo'jaligi eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar uchun xatarlarni sug'urtalashning takomillashtirilgan tizimini yaratish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltirishi mumkin: eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga investitsiyalar hajmini oshirish, fermerlar va agroklastlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda natijada ularning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish.

**2024–yilga** nisbatan eksport hajmi 36,9 foizga oshgan bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 6,3 foizni tashkil etgan.

Meva-sabzavotlarni yetishtirish va eksport qilish jarayonlari bilan bog'liq risklarning sug'urtalanganlik holatini tahlil qilish maqsadida mavjud manbalar o'rganilganda, mazkur yo'nalish bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlar ochiq e'lon qilinmagani aniqlandi. Shu munosabat bilan taxminiy hisob-kitoblar amalga oshirildi.

O'zbekistonda eksport operatsiyalari asosan «O'zbekinvest» eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ tomonidan sug'urtalanadi. Mazkur kompaniya eksport operatsiyalariga nisbatan tijorat va siyosiy risklarni sug'urtalash xizmatlarini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan Prezident qaroriga muvofiq, eksport kontraktlariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari, agroklastlar hamda eksportchi korxonalar uchun hosil sug'urtasi va eksport bilan bog'liq tijorat hamda siyosiy risklardan sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotining 50 foizi davlat

mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shundan kelib chiqib, 1-jadval ma'lumotlari asosida taxminiy hisob-kitoblar amalga oshirildi. Xalqaro amaliyotda eksport-kredit sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofoti odatda 0,3–1 foiz oralig'ida bo'ladi. Agar eksport qilingan meva-sabzavot mahsulotlarining o'rtacha 25 foizi sug'urtalangan deb hisoblansa, quyidagi natijalar hosil bo'ladi (1-jadval).

#### 1-jadval

##### Meva-sabzavot eksporti qiymatining o'rtacha sug'urtalangan qismi va sug'urta mukofoti<sup>1</sup>

Yil	Eksport qiymati (\$)	Sug'urtalangan qism (25%), mlrd. \$	Sug'urta mukofoti (tarif: 0,5%)
2021	0,957 mlrd.	0,239	1,2 mln. \$
2022	1,0 mlrd.	0,250	1,3 mln. \$
2023	1,2 mlrd.	0,300	1,5 mln. \$
2024	1,5 mlrd.	0,375	1,9 mln. \$
2025	2,1 mlrd.	0,525	2,6 mln. \$

Shundan kelib chiqib, davlat hamda eksportchi tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlari qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

#### 2-jadval

##### Eksport qilingan meva-sabzavot mahsulotlari uchun to'lanadigan sug'urta mukofoti taqsimoti<sup>2</sup>

Yil	Jami sug'urta mukofoti	Davlat tomonidan to'lanadi	Eksportchi tomonidan to'lanadi
2021	1,2 mln. \$	0,6 mln. \$	0,6 mln. \$
2022	1,3 mln. \$	0,65 mln. \$	0,65 mln. \$
2023	1,5 mln. \$	0,75 mln. \$	0,75 mln. \$
2024	1,9 mln. \$	0,95 mln. \$	0,95 mln. \$
2025	2,6 mln. \$	1,3 mln. \$	1,3 mln. \$

Yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-52-son qarorida meva-sabzavot yetishtirish jarayonida hosilni yo'qotish yoki kutilgan darajada ololmaslik risklaridan sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotiga nisbatan imtiyozlar belgilangan. Shu bilan birga, meva-sabzavot eksporti bilan bog'liq risklarni sug'urtalash bo'yicha qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlari ham mavjud. Mazkur yo'nalishni rivojlantirish eksport operatsiyalarining sug'urta himoyasini yanada kuchaytirish va eksport hajmlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur xulosani asoslash maqsadida quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin: «**2025-yilda** O'zbekistonda jami 23 mln tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan bo'lib, ular tarkibida sabzavotlar 51,1 %, kartoshka 15,8 %, mevalar 13,8 %, poliz mahsulotlari 11,4 % va uzum 7,8 % ulushni tashkil etgan. Shuningdek, meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmi 3,48 mln tonnaga yetgan [11].»

Demak, **2025-yilda** eksport qilingan meva-sabzavot mahsulotlari mamlakatdagi barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan yetishtirilgan jami mahsulot hajmining 9,6 foizini tashkil etgan. Eksport hajmining o'sish sur'ati **2024-yilga** nisbatan 36 foizni tashkil etgani ijobiy natija hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ishlab chiqarish salohiyatini inobatga olgan holda eksport ulushini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan risklarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta to'lovlarini (sug'urta mukofotini) qisman qoplash masalasi hozirgi vaqtda O'zbekistonda yetarli darajada tartibga solinmagan. Xususan, mavjud chora-tadbirlar asosan ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash va agrotexnologik samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, mahsulotni eksport qilish bosqichida yuzaga keladigan logistik, tijorat va moliyaviy risklar davlat tomonidan sug'urta mexanizmlari orqali yetarli darajada qamrab olinmagan.

Shu munosabat bilan meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bilan bog'liq risklarni sug'urtalashni davlat tomonidan rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday mexanizmlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining eksport

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



faoliyati barqarorligini oshirish, tashqi iqtisodiy risklar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, shuningdek, milliy meva-sabzavot mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eksport va import shartnomalarini sug'urtalashda ko'p faktorli integral risk-skoring modeli taklif etilgan bo'lib, unda **4 ta** blok asosida umumiy risk indeksi shakllantiriladi. Natijada:

- sug'urta mukofotini risk darajasiga proporsional ravishda belgilash imkoniyati yaratildi;
- da'volar sonini prognoz qilish imkoniyati paydo bo'ldi;
- sug'urta portfelining barqarorligi oshdi.

Mazkur tadbirlar amalga oshirilsa, eksport hajmi, uning barqarorligi hamda ushbu yo'nalishdagi raqobatbardoshlik sezilarli darajada oshadi.

Eksport-import operatsiyalarini sug'urtalashda uch bosqichli kafolat mexanizmi taklif etilgan. Unga ko'ra:

- xususiy sug'urta kompaniyasi — tijorat risklarini qoplaydi;
- davlat eksport-kredit agentligi — siyosiy risklarni qoplaydi;
- zahira jamg'armasi — fors-major holatlarida kompensatsiya beradi.

Ushbu ilmiy yangilikni amaliyotda qo'llash natijasida **2024–yilga** nisbatan **2025–yilda** sug'urta qamrovi 10 foizga oshdi, tuziladigan eksport shartnomalarining xavfsizlik darajasi oshdi hamda o'z navbatida davlat budjeti yukining optimallashtiruviga erishildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021–yil 15–dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–52-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5774700>
2. FAO. (2021). *Agricultural Insurance Development Guide*. Rome.
3. Hardaker, J., Huirne, R., Anderson, J., & Lien, G. (2015). *Coping with Risk in Agriculture*. CAB International.
4. Hull, J. (2018). *Options, Futures and Other Derivatives*. Pearson Education.
5. Mahul, O., & Stutley, C. (2010). *Government Support to Agricultural Insurance*. World Bank.
6. Miranda, M., & Farrin, K. (2012). *Index Insurance for Developing Countries. Applied Economic Perspectives and Policy*.
7. OECD. (2023). *Agricultural Risk Management Policies*. Paris.
8. Stephens, M. (2019). *The Changing Role of Export Credit Agencies*.
9. World Bank. (2022). *Agricultural Insurance and Risk Financing*. Washington, D.C.
10. Turvey, C. (2019). *Agricultural Insurance and Risk Management*.
11. UzDaily.uz sayti.
12. Monitor.kun.uz sayti.
13. Stat.uz sayti.
14. Caspianpost.com sayti.
15. Uza.uz sayti.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)